

FONOSEMANTIKA VA FONOSTILISTIKANI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7542544>



ELSEVIER



Foundation of Advanced Research Scholars

**Kabilova Zebiniso Muratovna**  
Andijon davlat chet tillari instituti Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası  
mudiri, f.f.n., dotsent.

**Arabboyeva Maxfuza Akramjonovna**  
Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası  
o'qituvchisi



**Abstract:** Tilshunoslik, gid hamrohligi, jurnalistika sohalari vakillari fonosemantika va fonostilistikaga doir bilimlarni chuqur egallashlari, bundan tashqari, ularning boshqa sohalar bilan ham chambarchas bog'liqligini hisobga olgan holda o'rganish ayni muddao bo'ladi. Shunday ekan o'zbek tili uslublari haqida chuqur bilimga ega bo'lish ehtiyoj va zaruratdir.

**Keywords:** fonetika, fonosemantika, fonostilistika, jurnalistika, uslub, umumxalq tili, adabiy til, ko'rgazmali qurol, notiqlik, metodika.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 15-01-2023

Accepted: 16-01-2023

Published: 22-01-2023

*Sinsa ko'ngul shishasi tadbir ila bo'lmas butun,  
Ustuxon ermaski, oni rost qilsa mo'miyo.  
"Muntaxaboti ash'ori Soib" kitobidan*

## Kirish

Hech kimga sir emaski, adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va milliy mentalitet talablari asosida me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. "Qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqda ham adabiy til turli davrda turlicha bo'lgan (masalan, qadimgi turkiy adabiy tili, hozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan.

## Asosiy qism

Uslub – tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Umumta'lim maktablarida dars berayotgan aksariyat ona tili o'qituvchilari, afsuski, bugungi ona tili ta'limning maqsadi, xususan, fonetik ma'nodorlik va fonetik uslubiyatni o'qitishdan ko'zlangan maqsad mazmuni, davlat va jamiyatning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi haqida aniq tasavvurga ega emasligi muammoning manbasini ko'rsatib turibdi.

Tan olish kerakki, mazmunan yangi, zamon ruhiga mos darslik, qo'llanmalar chop etilib, amaliyotda o'z samarasini bermoqda. Biroq yagona darslik bilan muammoni hal qilib bo'lmaydi. Ba'zan darsliklarda uchraydigan kamchiliklarni to'ldirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Aynan fonetika mavzusini o'qitishda darslikda berilgan o'quv materiallari zarur BKM va kompetensiyalarni o'quvchida shakllantira olmayotganliklari kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'ldi.

Tilning ikkita asosiy ma'no turi - leksik va grammatik ma'nolarni ajratib ko'rsatish odatiy holdir. Shu bilan birga eng quyi, fonetik darajadagi birliklarda hech qanday ma'no mavjud emas degan an'anaviy qarash hanuzgacha hukmronlik qilib kelmoqda.

Lisoniy shakl mazmuni uning ramziy ma'nosini, nutq tovushlarining ramziyligi esa fonetik shaklning mazmuni - fonetik ma'nosini tashkil etadi. So'zning fonetik ma'nosi uning nutqda faol yoki passiv qo'llanishi, ekspressivligi, turli uslublarda qo'llanilishi jarayonida vujudga keladigan semantik o'zgarishlarga albatta ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Tovush shaklining ma'noviy tovlanishi uning ramziylik chizig'i bo'ylab semantik siljishlarning yuzaga kelishi uchun zamin tayyorlaydi. Shunisi qiziqki, fonetik ma'no so'zning lug'aviy ma'nosidan anglashiladigan atrof-muhitdagi mavjud obyektlar, voqea-hodisalar, vaziyatlar va shu kabilarning ma'nosini qo'zg'atuvchi o'ziga xosliklari, integral ma'noni shakllantirishda ham asosiy pozitsiyani egallashi ham mumkin. So'zning fonetik ma'nosi So'zning lug'viy ma'nosi chegaralangan bo'ladi. Shu chegaraning kengayishi yoki torayishi uning fonetik ma'nosi ta'sirida amalga oshadi.

Maktab yoshidagi bolalarga nutq faoliyatining fonosemantik tomonlarini o'rgatishda frazeologik birliklardan kengroq foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki frazeologiya - tilning o'ziga xos qismi. Frazeologiyada xalqimizning boy madaniy va tarixiy tajribasi, tarixiy rivojlanishida yuzaga kelgan tarixiy-lisoniy qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish mumkin.

O'quvchilarga matn, nutq va ularning turlari haqida ma'lumot berish jarayonida frazeologik birliklarning majoziylik va ramziylikka asoslanishini alohida yoritib o'tishlari shart bo'ladi.

Uslubshunoslar fonosemantik komponentlarni hanuzgacha fonostilistik vositalar - alliteratsiya, assonans, konsonans, ritmik, takrorlashlar va boshqalar sifatida qabul qiladilar. Shuning fan o'qituvchilari fonosemantik vositalar - tovush takrorlari, tovush qabatlanishi, fonemalar tovlanishi, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning almashinishi haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari so'z turkumlarini o'rgatishda alohida olingan so'zlar - onomatopeyaning o'ziga xos fonetik uslubiy xususiyatlari ustida alohida to'xtalib o'tsalar ayni muddao bo'ladi. Sababi til tashuvchisining emotsiya holatida

qichqirish, chiyillash, bo'kirish, xayqirish, baqirish kabilarga nima uchun murojaat qilishlari, va shunday ruhiy vaziyatlarda yuqorida aytib o'tilgan fonosemantik vositalarni qo'llashlari tabiiy holdir.

Muloqotimiz jarayonida nutqimizda sodir bo'layotgan fonetik o'zgarishlar (tovush o'zgarishlari): tovushlarning moslashishi (akkomodatsiya), metateza, diereza, prokopa, eliziya va shu kabilarning vujudga kelishiga va ularning uslubiy jihatdan ham farqlanishiga yordam beradi. Natijada tilimizda mavjud oltita - ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy, diniy, so'zlashuv uslublarining fonetik jihatdan farqlanishini yaqqol misollar bilan anglash mumkinligi asoslanadi. Aynan shu talaffuz uslublarini shakllantirishda so'zlar talaffuzining uslubiy belgilari sifatida fonetik o'zgarishlar ishtirok etadi.

Jamiyat kishilarining kundalik hayotlarida talaffuz uslublarining - neytral, baland va past singari uslubiy belgilarini ajrata olishga fahmu farosati yetganligi uchun ham bir-birlariga nutqiy muloqot jarayonida ovozi bilan ko'nglini shod, vayron qilishadi. Jamiyatda o'rnini to'g'ri yoki noto'g'ri belgilashda kishilar nutqning prosodik tomoni - ovoz, ritm, ohang, tembr, temp, diksiya, mantiqiy urg'u kabilar haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishlarini hayot taqozo etadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fonetik ma'nodorlik va fonetik uslublarni bilish va o'rganish barcha uchun birdek muhimdir. Chunki nutqimizning chiroyli, mazmundor chiqishida fonetik uslublarning o'rni beqiyos. Negaki yurtimizda yashab ijod etgan buyuk insonlar o'z nutqlariga alohida e'tibor qaratganlar. Til jarohatlarining bitishi amri maholligini anglab yetganlar. Inson bolasi odamlarni ona qornidan to tug'ilguniga qadar ovozlari orqali, tug'ilgandan so'ng ko'zlari va quloqlari bilan taniy boshlaydi. Shunday ekan kattalar ularning ta'lim-tarbiyasiga doim mas'uldirlar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduazizov A. Fonostilistik vositalarning o'rganilishiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. - 1985.
2. Kabilova Z.M. O'zbek tilining fonosemantik vositalari. Filol. fanlari nomzodi ...diss. aftoref. -T., 2008.
3. Mahmudov N. Badiiy so'z mas'uliyati. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -T., 2010-yil, 23-apreldagi 17-soni.
4. Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. Filol. fanlari nomz. ...diss. -T., 1996.
5. Qilichev E.R. O'zbek tilining praktik stilistikasi. -T., 1985.
6. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. -T., 1975/

7. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T., 1992.

8. Каримов С.А. Ўзбек тили функционал стилистикаси. -Самарқанд: СамДУ, 2010, 96-98-бетлар.